

Jizzax davlat pedagogika universiteti,  
Pedagogika va psixologiya fakulteti katta o'qituvchisi  
Usmonov Azamat Jo'raboyevich

## BOLALIK – INSONNING IJTIMOY HAYOT ME'YORLARINI EGALLASH DAVRI

*Asranboyeva Marjonaxon Avazbek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich 104-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bolalarning ijtimoiylashuvida – uning jamiyatga kirishishida , turli xil ijtimoiy guruh va tuzilmalardagi qadriyatlar , ko'rsatmalar , ijtimoiy o'zini tutish me'yor va namunalari kabi muhim jarayonlar tahlil qilinadi. Maqolada hayotimizdagi insonlarning ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirishi, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan .

**Kalit so'zlar :** rivojlanish, tashqi omillar, ichki omillar, sotsializatsiya, biologik yondashuv, ijtimoiy yondashuv, psixologik yondashuv, yaxlit yondashuv .

## CHILDHOOD IS PERIOD OF ACQUIRING SOCIAL NORMS.

**Annotation:** this article analyzes important processes in the socialization of children – their integration into society , such as values , guidelines , norms and models of social behaviour in various social groups and structures . The article presents information about the assimilation of social rules by people in our lives and their impact on their personal and social development .

**Key words:** development , external factor , internal factor , socialization , biological approach , social approach , psychological approach , holistic approach .

## ДЕТСТВО – ЭТО ПЕРИОД КОГДА ЧЕЛОВЕК УСВАИВАЕТ НОРМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ.

**Аннотация:** в данной статье анализируются важные процессы социализации детей – их вхождение в общество такие как ценности установки нормы и примеры социального поведения в различных социальных группах и структурах . В статье даны сведения о принятии людьми социальных правил в нашу жизнь их влиянии на личностное и социальное развитие .

**Ключевые слова :** разработка, внешний фактор, внутренний фактор, социализация, биологический подход, социальный подход, психологический подход, целостный подход .

## KIRISH

Bolalik inson umrining eng beg'ubor, orzu-umidlarga to'la jo'shqin va haroratli damdir. Bolaning kulgusi, ko'zlaridagi quvonch butun olamni yoritadigandek go'yo. Xalqimiz azaldan bolajon xalq, bunga tariximizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Bugun ham yurtimizda turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar qatorida ertamiz egalari bo'lgan farzandlarimiz manfaatlarini himoya qilish, ularning jahon andozalariga muvofiq bilim olishi, ma'naviy kamol topishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilgan.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Bugun mamlakatimizda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har-bir bolaga mehr va e'tibor ko'rsatilmogda. Buni birgina "Mehr" operasialari davomida Vatanimizga qaytarilgan bolalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu borada "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati ham ularning hayotga qayta moslashuvi, bilim olishi uchun o'z hissasini qo'shib kelayotgani hech birimizga sir emas. Shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun ham "Ma'naviyat festivali" doirasida "Bolalarga ma'rifat ulashib", "Ma'rifat tur", "Baxtli bolalik" loyihalarini amalga oshirib kelinmogda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Rivojlanish- bu shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladi. Miqdor va sifat o'zgarishlari mohiyatini idrok etuvchi murakkab jarayondir. Shuni aytishimiz mumkinki , rivojlanish oddiydan murakkabga , quyidan yuqoriga eski siflardan yangi holatga o'tish , yangining paydo bo'lishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishiga aytiladi. Xususan, inson rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, u tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga misol qilib, insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek, bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliytni keltirish mumkin . Ichki omillarga esa , biologik, irsiy omillar kiradi . Xususan , rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin , mehnat , o'quv , sport ) va muloqotga kirishadi ( oila a'zolari , qarindoshlar , tengdoshlar , begona kishilar ) . Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi . Bu esa , muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi , yetakchisi bo'ladi . Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi , ammo , har bir faoliyatning yangi turi oldingisining zamirida yuzaga keladi.

### METODOLOGIYA

Sotsializatsiya – uzluksiz va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi . Asosan , bu jarayon bolalik va bolalarda jadal kechadi . Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega . Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin . Bu esa , o'z navbatida bola faoliyatida atrof muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi .

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga oid to'rtta yondashuv mavjud bo'lib , ularga quyidagilar kiradi :

1. **Biologik yondashuv** – inson tabiiy mavjudot bo'lib , uning butun xatti – harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlari natijasidir .Inson jamiyat Talablariga bo'ysunish bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.
2. **Ijtimoiy yondashuv** – inson faoliyati davomida boshqalar bilan muloqotga kirishadi , ijtimoiy guruhlar ta'sirida esa , ijtimoiylashib boradi .
3. **Psixologik yondashuv** – shaxsdagi psixik jarayonlar tabiiy tavsifga ega insonning yo'nalganligi qiziqishlari , qobiliytlari , ijtimoiy hodisa hisoblanadi
4. **Yaxlit yondashuv** – shaxsga faoliyatdagi o'ziga xosliklar , turmush tarzi ta'sir ko'rsatadi . Ijtimoiy hayot natijalari motiv , maqsad , qiziqishlar uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi . Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , bola rivojlanishi asosida ikki muhim omil : irsiyat va muhit ajratiladi .

### XULOSA

Irsiyat – bu bolalar genetik dasturiga kiritilgan , muayyan xislat va xususiyatlarning ota – onadan bolaga o'tishidir . Bunga ko'ra , ota – onadan bolaga inson organizmi , asab tizimi , miya va his – tuyg'u organlari , shuningdek , soch , teri rangi , qomat o'tadi . Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi omillardir .

Hozirgi kunda bola rivojlanishiga ekologik muhit , atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda . Buning oqibatida esa , jismonan nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'payib bormoqda .

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. B. T. Qodirova “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” o'quv qo'llanma . (2021)
2. Suyunova Matluba BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOY OMILLARNING AHAMIYATI *Международный научный журнал № 9 (100), часть 3 «Научный импульс» апреля , 2023*
3. Abduraxmonova S. Sh. (2021). THE IMPORTANCE OF PRESCHOOL LITERATURE FOR CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATION. *European Scholar Journal*, 2(4), 447-449.
4. Mirzaev, O. (2022). THE ROLE OF ETHICS AND AESTHETICS IN THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL RELATIONS BETWEEN INDIVIDUALS. *Science and innovation*, 1(B6), 125-130.
5. Nargiza, Q. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTLARIDA LOGOPED ISHINING OLIV BORILISHI. *PEDAGOGS jurnali*, 22(2), 52-54.
6. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 295-298.
7. Мирзаев, О. Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. *Science and Education*, 1(2), 508-513.
8. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. *JournalNX*, 1, 265.
9. Khalilkhoja, D. M. (2022, March). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF HOME INDIVIDUAL EDUCATORS. In *Conference Zone* (pp. 315-318).
10. Azimova, Z. E., & KHASANOVA, G. THE WAY OF SCIENCE. THE WAY OF SCIENCE Учредители: Издательство Научное обозрение, (6), 58-59.
11. Азимова, З. Э., & Муллаахунова, Н. М. (2023). РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ 6 КЛАССА УЗБЕКСКИХ ШКОЛ СРЕДСТВАМИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 638-641.
12. Азимова, З. Э. (2018). Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (2), 26-35.
13. Gulhayo, M. (2023). TECHNOLOGIES FOR DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCES OF PRESCHOOL TEACHERS. *Science and innovation*, 2(B4), 632-634.
14. Mominova, G. (2023). МАКТАБГАЧА ТАЛИМ ТASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING UMUMMADANIY KOMPOTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *Science and innovation in the education system*, 2(2), 122-126.
15. Iminova, D. N. (2021). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТASHKILOTI VA МАКТАБ O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI. *Science and Education*, 2(1), 301-303.
16. Iminova, Dilnoza. "МАКТАБГА ТАЙЙОРЛОВ GURUHLARIDA BOLALARNI BILISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH." *Models and methods in modern science* 1.17 (2022): 54-56.